

## XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA INTERAKTIV METOD USULLARI (Ingliz tili misolida)

Nargizaxon Madaminova

O‘zDJTU, ikkinchi chet tili kafedrasi, stajyor-o‘qituvchi

### Annotasiya

*Ma'lumki, xorijiy tillarni o'qitishda innovatsiyon pedagog texnologiyalardan foydalanish davr talabidir. Ushbu maqolada bugungi kunda yoshlarning talabidan kelib chiqqan holda yangi metod usullarni olib borish shuningdek, samarali dars soatlarini tashkil qilish xususida so'z boradi. Xususan, mamlakatimizda xorijiy tillarni o'qitishda bo'lajak kadrlarni kasbga yo'naltirishda xorijiy tillarning ahamiyati to'g'risida so'z boradi.*

### **Kalit so'zlar:**

*Innovatsiyon metod, smart texnologiyalar, kichraytirilgan auditoriyalar, xorijiy til, interaktiv usul, masofaviy ta'lim.*

### **INTERACTIVE METHODS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES**

### **Abstract**

*It is known that the use of innovative pedagogical technologies in teaching foreign languages is the demand of the times. This article talks about the implementation of new methods and the organization of effective class hours based on the demands of today's youth. In particular, in the teaching of foreign languages in our country, there is a talk about the importance of foreign languages in guiding future personnel to the profession.*

**Keywords:** *Innovative method, smart technologies, small audiences, foreign language, interactive method, distance education.*

### **KIRISH**

Rivojlanish strategiyasi yo‘lidan borayotgan har bir mamlakat geosiyosatda mustahkam o‘rniga ega bo‘lishi uchun davlatlararo iqtisodiy, siyosiy gumanitar, diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yishi zarur. Bu munosabatlarni chuqurlashtirishda xorijiy tillarni puxta egallagan kadrlarga bo‘lgan ehtiyojning sezilishi tabiiy. Bu borada pedagoglarning hissasi katta. Pedagogik mahorat – o‘qituvchi ijodkorligining oliy namunasi bo‘lib, u yillar davomida shakllanadi. Uning yuksak mahoratni egallashi

g'oyat murakkab jarayon bo'lib, pedagogika fanining eng dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Har bir o'qituvchi kasbiga xos bo'lgan yuksak fazilatlar bilan bir qatorda, o'z sohasining pedagogik mahoratini egallashga intilishi katta ahamiyatga ega. Pedagogik mahoratga ega bo'lgan xodimlargina o'z kasbiga layoqatli, iste'dodli bo'lishi mumkin[1.B,123]. Muvofaqqiyatli faoliyat olib borish uchun, o'qituvchilardan pedagogik mahorat bilan birga keng dunyoqarash ham talab etiladi. Bunday qobiliyatga ega o'qituvchilar oz mehnat sarf qilib, katta natijaga erishadi, ijodkorlik esa hamisha uning hamkori bo'ladi. Pedagogik faoliyatning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi o'z fanini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi, unga turdosh fanlar haqida ham tushunchaga ega bo'lishi, o'quv materialini talabalarga yetkazib bera olishi ularda mustaqil ravishda faol fikrlashga qiziqish uyg'otishi, bilimi va ruhiy olamini inobatga olishi shuningdek, bilim darajalarini tasavvur etishi lozim[2.B,23]. Qobilyatli, tajribali o'qituvchilar o'zlarini talabaning o'rniga qo'ya oladi va shunga muvofiq darslarni tashkillashtiradi. Shuning uchun u bayon etishning sifati va dars o'tish mexanizmini aniq va izchil rejalashtiradi. Bu turdagi o'qituvchilar o'z faoliyatini zamon talablariga muvofiqlashtirgan holda amalga oshirishi barchaga ma'lum. Zamonaviy ta'lim tizimini esa "kompetensiya" va "interaktiv metod" atamalarisiz tasavvur qilish mushkul. Ta'lim tizimini shakllantirishda o'quv-ta'limiy-kompetensiyaning o'zni alohida ahamiyatga ega. O'quv-ta'limiy-kompetensiya- talabaning ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotga tadbiiq eta olishidir. Mantiqiy, metodologik, qiyoslash, idrok qilish, tadbiiq qilish, o'z-o'zini baholash faoliyatini o'z ichiga olgan o'zini-o'zi anglashidagi bilimlar yig'indisi deganidir. Talabalarga ta'lim berish kompetensiyasini shakllantirishda interaktiv metodlardan ta'lim sohasida bevosita foydalaniladi.

## NATIJALAR

Shu o'rinda interaktiv metod o'zi nima? degan savol tug'ilishi tabiiy. Zamonaviy dars berish metodlaridan asosiysi "*interaktiv*" metod bo'lib, hozirda uning tarjimai ko'p hollarda "*interfaol*" deb, yuritiladi[3.B, 23]. Bu atama inglizcha "*interaktiv*" so'zidan olingan bo'lib, "o'zaro ta'sirlashish" ma'nosini bildiradi va biror faoliyat yoki metodda o'zaro bahs-munozara, fikrlash asosida faoliyat yoki hamjihatlik bilan hal etilishi tushuniladi. Yanada soddaroq tushuntiradigan bo'lsak, interaktiv metodlar talaba va o'qituvchining yakdil holda faoliyat olib borishi demakdir. Interaktiv metod asosan, talabalarni fikrlashga undaydi. Bugungi kunda talabalarga ingliz tili darslarini o'tishda zamonaviy metodlardan keng foydalaniladi, ammo bir qancha muammo va kamchiliklar yetarlichadir. Interaktiv metod talaba va o'qituvchilardan doimiy faollikni talab etadi. Talabalar ingliz tili darslarini tashkil qilishda dars mashg'uloti paytida

muntazam mavzuga doir biror muammoni yechish bilan band bo'ladilar. Ularda zerikish, darsga e'tiborsizlik va beparvolik holati kuzatilmaydi. Bu metoddan foydalanish uchun o'qituvchi, avvalo, interaktiv metod strategiyalari va usullaridan foydalanib dars jarayoni texnologik loyihagini tuzishi zarur. Boshqacha qilib aytganda, o'qitish metodi ta'lim oluvchi va o'qituvchining o'qitish jarayonidagi o'zaro aloqa shaklidir. O'qituvchi va talaba orasidagi jarayon aslida talabani u yoki bu bilim ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish maqsadida bog'lab turganligini ko'rsatib turadi. Agar keng ko'lamda oladigan bo'lsak, o'qitishning birinchi kunlaridan to shu kungacha o'qituvchi va talaba orasidagi keng ma'noda uch xil bog'lanish shakllangan bo'lib, u o'z tasdig'ini topgan. Ko'rinib turibdiki, uslubiy yondashuvda o'qituvchining barcha metodini uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

1. Nofaol metod.
2. Faol metod.
3. Interaktiv metod

Ko'rsatib o'tilgan har bir uslubiy yondashuv o'ziga xos xususiyatga ega.

## MUHOKAMALAR

Bugungi kunda xorijiy tillarni o'qitishning samarali uslublari hamda xalqaro tajribalardan O'zbekiston Davlat Jahon Tillari universiteti faol foydalanib keladi. Ta'lim jarayoni xalqaro standartlarga mos tarzda olib borilib, chet davlatlar bilan talabalar almashish jarayoni ham keng yo'lga qo'yilgan. Xorijiy tillarni o'rgatishga mo'ljallangan auditoriyalar zamonaviy o'quv texnologiyalari bilan jihozlangan. Universitet qoshida chet tillarini o'qitishning innovatsion metodlarni rivojlantirish respublika ilmiy-amaliy markazi ingliz tili o'qtuvchilari uchun joriy etilgan "Pressett" dasturi asosida chet tillari bo'yicha bilimlarini og'zaki va yozma baholash tizmiga bag'ishlangan seminar treyning an'anaviy ravishda tashkil etib kelinadi bu esa pedagog kadrlarga xorijiy tillarni o'rgatishda samarali vositalardan biridir[4.B,38] Oliy ta'lim muassasalarida chet tillarini o'rgatishni yanada takomillashtirish choralari, malakali pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojning kamayishiga olib keladi. Oliy ta'lim tizmida xorijiy tillarning chuqur o'zlashtirilishida texnologik vositalar bilan ishlash samarali uslublaridan biri hisoblanadi. Xorijiy tillarni o'rgatish jarayonida qo'shimcha quydagi usul va metodlarni tavsiya etish mumkin:

*\*Qisqartirilgan auditoriyalar.* Jahon tajribasida keltirilgan xulosalarga ko'ra 5-6 kishidan iborat bo'lgan talabalar bilan ishlash yetarli darajada vazifalar berish va qabul qilishga imkon yaratadi.

**\*Texnologiyalardan unumli foydalanish.** Kompyuter, televizor, audiomagintafon, singari an'anaviy vositalarni dars jarayonlarida qo'llash. Chet tilida berilyotgan radio efir hamda TV ko'rsatuvlarni eshitish va tomosha qilish jarayonida axborotlarni tahlil etish xorijiy tilda muloqotga kirishga keng imkon beradi.

**\*Smart texnologiyalar bilan ishlash.** Bu jarayonda talabalar dars vaqtida uyga vazifalarini teshirishga ortiqcha vaqti tejaladi, hamda har bir talaba bilan individual shug'ullanish imkoniyati paydo bo'ladi. Uyga vazifalar onlayn tarzda modul tizimi yordamida topshirib borishni keng yo'lga qo'yish.

## XULOSA

Mamlakatimiz iqtisodiyoti aholi yashash turmush tarzini hisobga olgan holda xorijiy tillarni o'rganishni istagan yoshlar uchun oliy ta'lim tizimida xorij tajribasida sinalgan **masofaviy ta'lim** shakillarini yo'lga qo'yish mumkin. Shu o'rinda bir savol tug'iladi masofaviy ta'limning afzalligi nimada? Ma'lumki internet tarmog' butun respublikamizning chekka hududlarigacha kirib borgan qulay aloqa vositasi. Shu vositaga tayangan holatda masofaviy ta'lim shakillarini yaratish zarur. Masofaviy xorijiy tillarni o'qitish fakulteti uzluksiz ta'lim tizmidan farq qilib o'quv darslari erkin tizimda olib boriladi. Ta'lim shakliga talabalar imtihonsiz to'lov kontrakt asosida qabul qilinadi. O'quv yilining birinchi bir yillik imtihonida xorijiy til predmetlari yuzasidan topshiradi. Agarda talaba belgilangan o'tish ballini to'play olmasa qaytadan birinchi bosqich predmetlarini o'qishi talab etiladi. Xorijiy tillarni o'qitishga ixtisoslashgan oliy ta'lim muassasalarida davlatlararo kadrlar almashinuv hamkorlikni yo'lga qo'yish samarali natijaga olib keladi. Innovatsiyon ta'lim texnologiyalarining bir necha xil usullari mavjud bo'lib. Ularda darslarda mavzuni yoritishda keng va turli usullardan foydalanilsa, darslarning samaradorligi yuqori bo'ladi. Chet tili darslarining o'qitishda turli rolli harakatlar, o'yinlardan foydalanish, intervyu jarayonlari ham til o'rganishga bo'lgan qiziqishni ortishiga sabab bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy tillarni puxta egallagan bilim salohiyati yuqori yoshlar barcha sohalarda birdek Vatanimiz sha'nini ko'klarga ko'taradi. Demokratiyalashayotgan jamiyatimizni qurishda xorij tajribalarini o'rganish va izlanishlar olib borish mamlakat taraqqiyotini belgilovchi omil sanaladi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. Ishmuhammedov R. “Innovatsiyon texnologiyalar yordamida ta’lim samaradorligini oshirish yo‘llari” Toshkent “Nizomiy nashriyoti. TDPU 2005.
2. Ellis, Rod (2003). Task-Based Language Learning and Teaching. Oxford: Oxford University Press. ISBN 978-0-19-442159-1.
3. Richards, Jack C.; Schmidt, Richard, eds. (2009). "Information gap". Longman Dictionary of Language Teaching and Applied Linguistics. New York: Longman. p. 282. ISBN 978-1-4082-0460-3.
4. UZA.uz Xorijiy tillarni o‘qitish takomillashtirilmoqda 01.03.2017 yil